



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI.

**Ilmiy rahbar: Shopulatova Nasiba Umirovna**

*NIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasidotsent v.b.,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Ibodova laylo Fazliddin qizi**

*NIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası  
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-guruh talabasi*

Boshlang‘ich ta‘lim — har bir bolaning bilimga ilk qadam qo‘yadigan, butun hayotdagi o‘rganish asoslarini shakllantiradigan eng muhim bosqichdir. Bu davrda o‘quvchilarning diqqat-e‘tibori tez almashtiriladi, qiziqishlari yuqori bo‘ladi va ular faol o‘rganishni istaydi. Shu sababli an‘anaviy “o‘qituvchi — ma‘lumot beruvchi” modelidan tashqari interfaol metodlar ta‘lim sifatini oshirishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Interfaol metodlar — bu o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi, hamkorlikda ishlashi va o‘z tajribasi orqali bilim hosil qilishini ta‘minlovchi o‘quv-uslubiy yondashuvlar to‘plamidir. Ular o‘quv jarayonini dinamik, qiziqarli va samarali qiladi.

Interfaol metodlar o‘qituvchi markazida bo‘lgan qat‘iy darsdan farqli ravishda, o‘quvchini faol sub‘ekt sifatida jalb etadi. Bu usul bolalarga o‘z fikrini bildirishi, xatolar orqali o‘rganishi, mustaqil qaror qabul qilishi. Natijada ular mavzuni yodlash orqali emas, tushunish orqali o‘rganadilar. Interfaol metodlar o‘quvchilarda qiyin vazifalarni yechish ko‘nikmasi, ijodiy yondashuv, analitik fikrlash xususiyatlarini rivojlantiradi. Masalan, muammoli topshiriqlar, aqliy hujumlar, keys tahlili bu qobiliyatlarni mustahkamlaydi.

Guruhda yoki juftlikda ishlash sharoitida bir-biri bilan muloqot qilish, fikr almashish, jamoaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Bu esa nafaqat ilmiy bilim, balki ijtimoiy tajriba ham beradi.

Faol interfaol darslarda bolalar qiziqadi, ishtiyoq bilan ishtirok etadi, darsdan zavq oladi. Bu ularning o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi — natijada bilim samaradorligi ortadi.

Har bir bola o‘ziga xos o‘rganish uslubiga ega. Interfaol metodlar:

vizual (ko‘rish orqali), kinestetik (amal orqali), audial (eshitish orqali) o‘rganadigan o‘quvchilarga moslashadi. Shu bilan darslar har bir o‘quvchiga mos tarzda taqdim etiladi.

Boshlang‘ich sinflar uchun interfaol metodlardan biri “INSERT” metodini ko‘rib chiqamiz. Bunda :

1) ✓





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Buni oldin bilganman

2)+

Men uchun yangi ma'lumot

3)?

Tushunmadim / savolim bor

Daraxtlar

Daraxtlar tabiatning muhim qismi hisoblanadi. Ular havoni tozalaydi va bizga toza kislorod beradi. Daraxtlarning ildizi, tanasi va shoxlari bo'ladi. Mevali va mevasiz daraxtlar mavjud. Daraxtlar qushlar va hayvonlar uchun boshpana bo'lib xizmat qiladi. Daraxtlarni asrash har bir insonning burchidir.

O'quvchi matnni o'qib, quyidagicha belgilar qo'yadi:

✓ Daraxtlar havoni tozalaydi.

Daraxtlar hayvonlar uchun boshpana bo'ladi.

✓ Daraxtning ildizi va tanasi bo'ladi.

? Mevasiz daraxtlar qaysilar?

O'qituvchi bilan muhokama qilinadi. O'qituvchi savollar beradi:” Qaysi ma'lumotni oldin bilardingiz? Qaysi ma'lumot siz uchun yangi bo'ldi? Qanday savollaringiz tug'ildi?” Bolalar og'zaki javob beradi, o'qituvchi tushunarsiz joylarni izohlaydi. So'ng o'quvchi matnni anglab o'qiy oldimi, belgilarni to'g'ri qo'lladimi, savol bera oldimi, darsda faol ishtirok etdimi yo'qmi kuzatadi.

### KUTILAYOTGAN NATIJALAR

O'qib tushunish ko'nikmasi rivojlanadi, mustaqil fikrlash shakllanadi, savol berishga o'rganadi, diqqat va xotira mustahkamlanadi, darsga qiziqish ortadi.

INSERT metodi boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn bilan ongli ishlashini ta'minlab, ularni mustaqil fikrlashga va savol berishga o'rgatadi. Ushbu metod dars jarayonini jonlantiradi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

“Jigsaw” (Pazllar) metodi

O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Shu qatorida berilgan mavzu ham bo'laklarga bo'linadi. Har bir guruh bir bo'lakni oladi va o'rganadi. Keyin har bir guruh bir-biri bilan savol-javob tariqasida o'z bilimlarini birlashtiradi. Qaysi guruh savol-javobda yuqori ball to'plasa, o'sha g'olib bo'ladi. Bu metoddan maqsad o'quvchilarni birgalikda hamkorlik qilish, muloqot qilish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bu metoddan so'z turkumlarini, fonetik tushunchalarni o'quvchilarga o'rgatishda foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar — bu nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda fikrlash, muloqot, ijodkorlik va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradigan kuchli vositadir. Ular darsni jonli, qiziqarli va samarali qiladi hamda har bir bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva Q., To'xtaeva M. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: O'qituvchi, 2017.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2016.
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan, 2015.

